



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 172 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Said	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING IJODIY- METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Zamonaviy xorijiy til ta'limi sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqat lingvistik bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, mavjud metodik vositalarni pedagogik vaziyatga moslashtirish, ta'lim jarayonini mustaqil loyihalash, yangi o'quv topshiriqlarini yaratish, kommunikativ vaziyatlarni modellash, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish hamda pedagogik faoliyat natijalarini refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarini ham qamrab olishi zarurligi asoslangan. Tadqiqotda ijodiy-metodik kompetentlik tushunchasining mazmuni aniqlashtirilib, uning motivatsion-aksiologik, nazariy-kognitiv, amaliy-metodik va refleksiv-baholash komponentlari tavsiflangan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining mazmuni ochib berilib, uni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada metodik vazifalarni muammoli tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni modellash, loyiha faoliyati, mikroo'qitish, kommunikativ topshiriqlarni konstruksiyalash va refleksiv tahlilni o'zaro bog'lashga asoslangan texnologik yondashuv taklif etiladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida metodik mustaqillik, pedagogik moslashuvchanlik va kreativ qaror qabul qilishning o'zaro bog'liqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, ijodiy-metodik kompetentlik, kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik, kreativlik, ingliz tili o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, kommunikativ ta'lim, pedagogik loyihalash, mikroo'qitish, refleksiya, metodik mustaqillik.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of a technology for developing the creative-methodological competence of future English language teachers. It is argued that contemporary professional preparation of future English language teachers should not be limited to linguistic knowledge but should also include the ability to adapt methodological tools to pedagogical situations, independently design educational processes, create new learning tasks, model communicative situations, purposefully use innovative educational technologies, and reflectively analyze teaching outcomes. The concept of creative-methodological competence is clarified, and its motivational-axiological, theoretical-cognitive, practical-methodological, and reflective-evaluative components are characterized. The content of the technology for developing creative-methodological competence among future English language teachers is described, and the pedagogical possibilities of its implementation are analyzed. A technological approach based on the integration of problem-oriented methodological tasks, pedagogical situation modelling, project activities, microteaching, communicative task construction, and reflective analysis is proposed. The relationship between methodological independence, pedagogical flexibility, and creative decision-making is substantiated.

Key words: future English language teacher, creative-methodological competence, professional competence, methodological preparation, creativity, English language teaching methodology, pedagogical technology, communicative teaching, pedagogical design, microteaching, reflection, methodological independence.



Аннотация: В статье исследуются теоретические и практические основы технологии развития творческо-методической компетентности будущих учителей английского языка. Обосновано, что современная профессиональная подготовка будущего учителя английского языка не должна ограничиваться овладением лингвистическими знаниями, а должна включать способность адаптировать существующие методические средства к педагогическим ситуациям, самостоятельно проектировать образовательный процесс, создавать новые учебные задания, моделировать коммуникативные ситуации, целенаправленно использовать инновационные образовательные технологии и осуществлять рефлексивный анализ результатов педагогической деятельности. Уточняется содержание понятия творческо-методической компетентности, характеризуются ее мотивационно-аксиологический, теоретико-когнитивный, практико-методический и рефлексивно-оценочный компоненты. Раскрывается содержание технологии развития творческо-методической компетентности будущих учителей английского языка и анализируются педагогические возможности ее реализации. Предлагается технологический подход, основанный на взаимосвязи проблемной организации методических заданий, моделирования педагогических ситуаций, проектной деятельности, микропреподавания, конструирования коммуникативных заданий и рефлексивного анализа. Обосновывается взаимосвязь методической самостоятельности, педагогической гибкости и способности к принятию творческих решений.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, творческо-методическая компетентность, профессиональная компетентность, методическая подготовка, креативность, методика преподавания английского языка, педагогическая технология, коммуникативное обучение, педагогическое проектирование, микропреподавание, рефлексия, методическая самостоятельность.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonining mazmuni va metodik ta'minotida yuz berayotgan o'zgarishlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni yuzaga keltirmoqda. Ta'limning raqamli muhitga ko'chishi, kommunikativ kompetensiyaga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligi bo'lajak o'qituvchidan o'z kasbiy faoliyatini mustaqil loyihalash va pedagogik vaziyatga mos ravishda o'zgartirish qobiliyatini talab qilmoqda. Ingliz tili o'qituvchisining kasbiy faoliyati boshqa ko'plab fan o'qituvchilaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki til ta'limi bir vaqtning o'zida bilim berish, kommunikativ faoliyatni tashkil etish, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy-madaniy mazmunni yetkazish va o'quvchining mustaqil muloqotini rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchisi har bir darsda o'quv materialini o'quvchilarning real kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirishi, turli vaziyatlarni modellashtirishi va samarali metodik yechimlarni tanlashi zarur.

Bunday faoliyat o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik bilan birga, ijodkorlikni ham talab etadi. O'qituvchi darslikdagi tayyor mashqlarni qo'llash bilan cheklanib qolmasdan, ularni o'quvchilarning til darajasi, yoshi, qiziqishi va o'quv maqsadlariga moslashtirishi mumkin. Masalan, grammatik mashqni kommunikativ vazifaga aylantirish, matn asosida munozara tashkil etish, yangi lug'at birliklarini real hayotiy vaziyat orqali o'rgatish yoki o'quvchilarni loyiha faoliyatiga jalb qilish metodik ijodkorlikning amaliy namunalari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi uning umumiy ijodiy faolligini rivojlantirishdan ko'ra aniqroq kasbiy mazmunga ega. Chunki bu kompetentlik ijodkorlikni bevosita ingliz tilini o'qitish metodikasi bilan bog'laydi. 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi doirasida xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish kabi masalalar muhim ilmiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Shu sababli, mazkur maqolada ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish masalasining aynan ingliz tili o'qituvchisini tayyorlash jarayonidagi metodik jihatlariga e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetentlikka asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni real faoliyatda qo'llay olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bunda kompetensiya faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki muayyan kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish imkoniyatini beruvchi integrativ sifat sifatida qaraladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining metodik kompetentligini rivojlantirish ham ana shu nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi. Talaba ingliz tilini o'qitish metodlari, darsni tashkil etish shakllari, baholash vositalari va pedagogik texnologiyalar haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo u mazkur bilimlarni real dars sharoitida mustaqil qo'llay olmasa, uning metodik kompetentligi to'liq shakllangan deb bo'lmaydi. Ijodiy-metodik kompetentlik esa metodik kompetentlikning ijodiy faoliyat bilan integratsiyalashgan shakli sifatida qaralishi mumkin. Bunda bo'lajak o'qituvchi mavjud metodlarni bilish bilan birga, ularni o'zgartirish, moslashtirish, yangi metodik topshiriqlar yaratish va pedagogik vaziyatga mos qaror qabul qilish

imkoniyatiga ega bo'ladi. J.P. Guilford ijodiy tafakkur muammosini tadqiq etishda divergent fikrlashga katta e'tibor bergan. Divergent fikrlashning muhim xususiyati bitta muammoga bir nechta ehtimoliy javoblarni izlash bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatda bunday fikrlash o'qituvchining bir vaziyatga bir nechta metodik yechim taklif qila olishida namoyon bo'ladi.

E.P. Torrance ijodiy fikrlashni rivojlantirish va baholashga oid tadqiqotlarida ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik kabi xususiyatlarga e'tibor qaratadi. Ushbu xususiyatlarni bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining metodik faoliyatiga tatbiq etish mumkin. Masalan, talabani bitta mavzu uchun bir nechta topshiriq ishlab chiqishi ravonlikni, turli metodlardan foydalanishi moslashuvchanlikni, noodatiy metodik yechim taklif qilishi originallikni, topshiriqni pedagogik jihatdan batafsil ishlab chiqishi esa mukammallikni ifodalashi mumkin. Ingliz tilini o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim va o'quvchi markazli ta'lim kabi yo'nalishlar ham o'qituvchining metodik qarorlar qabul qilishdagi rolini kuchaytiradi. Richards va Rodgers til o'qitish metodlarini tahlil qilishda metodlarning nazariy asoslari, o'qituvchi va o'quvchi rollari, o'quv materiali hamda sinfdagi faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Demak, zamonaviy ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashda talabani metodlarni shunchaki yodlab olishi emas, balki ularning pedagogik imkoniyatlarini tushunishi, muayyan sharoitda tanlashi va moslashtira olishi muhim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Ijodiy-metodik kompetentlik" tushunchasini bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'ladigan integrativ sifat sifatida izohlash mumkin. Bizningcha, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligi – ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, metodik muammolarga muqobil yechimlar ishlab chiqish, mavjud ta'lim metodlarini yangi sharoitga moslashtirish, kommunikativ va ijodiy topshiriqlar yaratish hamda o'z metodik faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlarini birlashtiruvchi kasbiy-shaxsiy sifatidir.

Mazkur tushuncha uchta asosiy hodisaning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Birinchisi, ingliz tilini o'qitish bo'yicha metodik bilimlar tizimidir. Ikkinchisi, ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatidir. Uchinchisi esa mavjud bilim va tajribadan foydalanib, yangi metodik yechim yaratish imkoniyatidir. Ijodiy-metodik kompetentlikning muhim xususiyati uning dinamik xarakterga ega ekanligidir.

Talaba bir marta metodik bilimga ega bo'lib, butun kasbiy faoliyati davomida shu bilim bilan cheklanib qolmaydi. Ingliz tilini o'qitish metodikasi doimiy rivojlanib borayotganligi sababli, o'qituvchi ham o'z bilim va metodlarini yangilab borishi zarur. Shu jihatdan, ijodiy-metodik kompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishga tayyorligini ham ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi metodik tayyorgarlikning mazmuni va tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Agar talaba faqat nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklansa, uning ijodiy-metodik kompetentligini to'liq rivojlantirish qiyin. Shu sababli, metodika fanlarida reproduktiv topshiriqlar bilan bir qatorda konstruktiv va ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish zarur. Talaba tayyor dars ishlanmasini tahlil qilishdan tashqari, uni qayta ishlab chiqishi, yangi vaziyatga moslashtirishi va o'z variantini yaratishi kerak. Mazkur jarayon metodik bilimni faol bilimga aylantiradi. Faol bilim esa real pedagogik faoliyatda qo'llanadigan va yangi vaziyatlarda qayta tashkil qilinadigan bilimdir. Vazifaga asoslangan til o'qitish yondashuvi ham ushbu nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega.

D. Nunan tomonidan rivojlantirilgan task-based yondashuv tilni mazmunli vazifalarni bajarish jarayonida qo'llashga urg'u beradi. Bo'lajak o'qituvchi bunday vazifalarni o'zi konstruksiyalaganida, uning metodik ijodkorligi yanada rivojlanadi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda o'quvchi markazli yondashuv ham muhim. Chunki o'quvchining individual ehtiyojlari va o'rganish usullarini hisobga olish o'qituvchidan moslashuvchan metodik qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Demak, ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmi tayyor metodlarni o'rgatishdan ko'ra, talabani metodik qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb qilishdan iborat.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini mustaqil kasbiy sifat sifatida nazariy-metodik jihatdan asoslash va uni rivojlantirish texnologiyasini taklif etish bilan belgilanadi. Tadqiqotda ijodiy-metodik kompetentlik bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishi, metodik muammolarga muqobil yechimlar ishlab chiqishi, mavjud ta'lim metodlarini yangi sharoitga moslashtirishi, kommunikativ topshiriqlar yaratishi va o'z faoliyatini refleksiv baholashini ta'minlovchi integrativ kasbiy-shaxsiy sifat sifatida aniqlashtiriladi.



Shuningdek, uning motivatsion-aksiologik, nazariy-kognitiv, amaliy-metodik va reflektiv-baholash komponentlari o'zaro bog'liq tizim sifatida tavsiflanadi. Ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasida muammoli metodik topshiriqlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, loyiha faoliyati, mikroo'qitish, kommunikativ topshiriqlarni konstruksiyalash va reflektiv tahlilning ketma-ket va integrativ qo'llanishi taklif etiladi. Tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin. Xususan, ingliz tilini o'qitish metodikasi fanlarida talabalarni mustaqil dars loyihalash, kommunikativ topshiriqlar yaratish, pedagogik vaziyatlarni hal qilish va mikroo'qitish faoliyatiga jalb etishda taklif etilgan texnologik yondashuvdan foydalanish mumkin. Pedagogik amaliyotda ham talabalarning ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Talaba amaliyot davomida faqat tayyor darsni o'tmasdan, dars materialini mustaqil ishlab chiqishi, o'quvchilar faoliyatini kuzatishi va darsdan keyin o'z faoliyatini tahlil qilishi kerak. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchining metodik mustaqilligini kuchaytiradi va uni kelajakdagi kasbiy faoliyatga yanada puxta tayyorlaydi.

XULOSA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitish jarayonining kommunikativ, interaktiv va o'quvchi markazli xarakteri o'qituvchidan doimiy ravishda metodik qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Tadqiqotda ijodiy-metodik kompetentlik bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining metodik bilimlari, amaliy ko'nikmalari, ijodiy fikrlashi va reflektiv qobiliyatlarining integratsiyasiga asoslangan kasbiy-shaxsiy sifat sifatida talqin qilindi. Ijodiy-metodik kompetentlikning motivatsion-aksiologik, nazariy-kognitiv, amaliy-metodik va reflektiv-baholash komponentlari o'zaro bog'liq holda rivojlanishi lozim. Mazkur komponentlarning birgalikdagi rivoji bo'lajak o'qituvchining metodik mustaqilligi, pedagogik moslashuvchanligi va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda taklif etilgan texnologiya metodik bilimlarni amaliy faoliyatga aylantirishga qaratilgan. Uning muhim jihati talabaning tayyor metodlarni o'zlashtirishi bilan cheklanmasdan, ularni pedagogik vaziyatga moslashtirishi, yangi metodik mahsulot yaratishi va o'z faoliyatini reflektiv tahlil qilishini ta'minlashdan iborat.

Muammoli metodik topshiriqlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, loyiha faoliyati, kommunikativ topshiriqlarni konstruksiyalash, mikroo'qitish va reflektiv tahlilning o'zaro bog'liq holda tashkil etilishi bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, taklif etilgan texnologiyaning samaradorligini empirik jihatdan aniqlash uchun keyingi tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, diagnostik topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, tajriba va nazorat guruhlarining natijalarini taqqoslash hamda olingan ma'lumotlarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish ularning nafaqat metodik bilimlarini chuqurlashtiradi, balki mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, ta'lim jarayonini moslashtirish, innovatsion metodlardan foydalanish va o'z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, ijodkor, metodik jihatdan mustaqil va kasbiy jihatdan raqobatbardosh ingliz tili o'qituvchisini tayyorlash uchun muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim, oliy ta'lim va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi. Ilmiy darajalar berish tartibiga oid me'yoriy hujjatlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha ilmiy materiallar.
4. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991.
5. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. – Москва: Академия, 2002.
6. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения. – Москва: Издательство МГУ, 2003.
7. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
8. Torrance E.P. The Search for Satori and Creativity. – Buffalo: Creative Education Foundation, 1979.
9. Sternberg R.J., Lubart T.I. Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity. – New York: Free Press, 1995.
10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
11. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
12. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. – Harlow: Pearson, 2015.
13. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. – White Plains: Pearson Education, 2007.



14. Hedge T. Teaching and Learning in the Language Classroom. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
15. Scrivener J. Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching. 3rd ed. – Oxford: Macmillan Education, 2011.
16. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
17. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
18. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
19. Richards J.C. Curriculum Development in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
20. Nation I.S.P., Macalister J. Language Curriculum Design. – New York: Routledge, 2010.
21. Dörnyei Z. The Psychology of the Language Learner. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2005.
22. Dörnyei Z., Ryan S. The Psychology of the Language Learner Revisited. – New York: Routledge, 2015.
23. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. 2nd ed. – Alexandria: ASCD, 2005.
24. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.